

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MILLIY MATBUOTIDA MA'RIFATPARVAR ABDURAHMON SAYYOH TOSHKANDIYNING “ME'YOR UL-AXLOQ” ASARIDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR



Bekdavlat Aliyev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Falsafa kafedrası professori,
falsafa fanlari doktori

Annotatsiya: Bugungi kunda Sharq falsafiy tafakkuri, uning ochilmagan noyob ma'naviy me'rosini tadqiq etish, ajdodlarimiz qoldirgan qimmatli asarlarni o'rganish har jihatdan dolzarbdir. Shu tufayli ham Sharqning xususan o'rta osiyoning mashhur shaxslaridan biri Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning “Me'yor ul-axloq” asari va undagi yoritilgan falsafiy va axloqiy mulohazalarni tadqiq etish, manba sifatida asarni tahliliy o'rganish hamda uning Sharq falsafasidagi o'rnini ochib berishdan iborat. Abdurahmon Sayyoh Toshkandiyning “Me'yor ul-axloq” asari va undagi ilgari surilgan g'oyalar nihoyatda e'tiborlidir.

Tayanch (eng muhim) so'zlar: XX asr boshlari, Turkiston milliy matbuoti, “Me'yor ul-axloq”, “al-Isloh”, ota va ona, muallimlar, ulug'lar, podshohlar.

XIX asr ikkinchi yarmida musulmon Sharq mamlakatlarida yuzaga kelayotgan milliy ozodlik hamda taraqqiyot g'oyalarini ilgari surgan ma'rifatparvarlar faoliyati Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangan Turkiston o'lkasida turli ko'rinishlarda shakllana bordi. “Bu davrda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat kabi jadidlar o'z faoliyatlari davomida ilmfan, ma'rifat, odob axloq masalalariga katta e'tibor bilan qaraganlar¹”.

Abdurahmon Muhammad Sodiq o'g'li Toshkandiy ham XX asr boshlari matbuotida “Sayyoh” taxallusi bilan tanilgan ma'rifatparvar ziyolilardan biri bo'lib, u XIX asr oxiri XX asr boshlarida noshirlik qilish bilan birga odob axloq, diniy va ma'rifiy sohalariga oid qator kitoblar yozgan. Jumladan, birgina “Me'yor ul-axloq” asarining oxirgi qismida Abdurahmon Sayyohning muallifligida nashrga tayyorlangan “Makkai mukarrama tarixi”, “Bayt ul-muqaddas tarixi”, “Arabning qadimiy tarixi”, “Bani Isroil tarixi” kabi o'nga yaqin asarlar nomlari keltirilgan. Bundan tashqari u siyosat, islom, tarix, ma'naviyat sohalarida chop etilgan ko'plab kitoblarga noshirlik qilgan. Shuningdek, uning o'zi ham necha kitoblar yozgani ma'lum.

Abdurahmon Sayyohning o'lka aholisi kitob savodxonligini oshirish, mahalliy va dunyoviy yangiliklardan, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlardan xabardor qilishga qaratilgan faoliyati uning bosh muharrirligida 1915-1917 yillarda Toshkentda nashr qilingan “al-Isloh” jurnali faoliyatida ham ko'rish mumkin. Mazkur jurnal nafaqat Turkiston o'lkasida balki, qo'shni musulmon mamlakatlarida ham mashhur bo'lgan. “Jurnalda islom, shariat va fihiy masalalar, odob-axloq muammolari, mashhur diniy asarlardan tarjimalar, o'lka hayotiga oid bahs-munozalarlar berib borilgan²”.

Abdurahmon Sayyoh qalamiga mansub asarlardan ikkitasi “Me'yor ul-axloq” hamda “Tanvir ul-ahdoq fi-t makorim ul-axloq” asarlari o'rta asrlarda yashab o'tgan islom olamining yirik allomalari ilgari surgan g'oyalar asosida yozilgan bo'lib, odob-axloqqa oiddir. Mazkur asarlarda muallif axloqning mohiyati xususida fikr yuritar ekan avvalo Qur'oni karim, hadisi sharif hamda imom G'azzoliy, Faxriddin Roziy kabi allomalar asarlariga ishora qiladi. Asarda muallif tomonidan an'anaviy musulmon odob-axloq masalalariga yangicha yondashuvlarning bildirilishi alohida ahamiyatga ega. “Me'yor ul-axloq” asari 1912 yilda Toshkentda G'ulom Hasan Orifjonov matbaasida toshbosma uslubida chop etilgan³. Kitob ikki qism (hissa)dan iborat bo'lib, har ikki

¹ Ma'naviyat yuduzlari. – T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti, 2001. – B.321.

² O'zbekistonning yangi tarixi. I jild. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2011. – B.347.

³ Abdurahmon Muhammad Sodiq o'g'li Toshkandiy. Me'yor ul-axloq. – Toshkent: G'ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1912.

qismi yettitadan bobni o'z ichiga olgan. Kitobning birinchi qismi asosan axloqning nazariy masalalariga bag'ishlangan. Kitobning ikkinchi qismi esa, axloqning amaliy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, unda inson axloqi va axloqning ijobiy hamda salbiy kategoriyalariga misollar asosida tavsiflar berilgan. Kitob so'ngida inson axloqi va ruhiyati uchun xos bo'lgan o'ttiz ikkita xislat tavsiflangan. "Unda islomiy an'analardan kelib chiqqan holda ibodat, taqvo, shukr, duo, sabr kabi tushunchalarga izoh berish bilan birga, inson axloqining muhim sifatleri bo'lgan adab, afu, shafqat, sahovat va ehson, tavoze' va ehtirom, shijoat, diyonat, vafo, sodiqlik kabi kategoriyalarni tahlil qiladi¹". "Kitob so'ngida berilgan ma'lumotga qaraganda, Abdurahmon Sayyoh "Me'yor ul-axloq" asarining uchinchi va to'rtinchi qismlarini ham nashrga tayyorlagan²".

Umuman olganda, "Me'yor ul-axloq" asari nashrida Turkiston o'lkasidagi ta'lim muassasalarida musulmon bolalar ta'lim-tarbiyasida odob-axloq mavzusini sodda va tushunarli qilib yoritish maqsad qilib olinganligini ko'rish mumkin. Zero, o'sha davr nuqtai nazaridan mahalliy hamda keng yo'l ochilgan rus-tuzem maktablarida o'rta asrlarda yaratilgan odob-axloq haqidagi an'anaviy kitoblar o'quv dasturlaridan chetga chiqarilgan bir paytda, ularda ilgari surilgan g'oyalar hamda islomiy an'analari doirasida, mahalliy ma'rifatparvarlar tomonidan davr talablaridan kelib chiqqan holda qayta ishlangan odob-axloq darsliklariga ehtiyoj katta edi.

Abdurahmon Sayyoh axloq mavzusiga o'zi yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlardan kelib chiqqan holda fikr bildirgan. Odob-axloq masalasini Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi o'sha davrning boshqa ma'rifatparvarlari singari Turkiston jamiyatini halokatdan, qoloqlikdan ilm-fan taraqqiyotiga olib chiquvchi omil sifatida qaraydi. Ilgari surgan fikr-mulohazalarida "chiroyli odob-axloqqa erishishning yo'li bu hukamolar ya'ni zamon olimlari ta'limini, bilimini olishdir" degan xulosaga keladi.

Masalaga shu nuqtai nazaridan yondashgan holda "Me'yor ul-axloq" asarining 1912-yilda Toshkentda "G'ulom Hasan Orifjonov" matbaasining toshbosma nashri asosida insonlar odob-axloqining ayrim jihatlariga bag'ishlangan qismlaridan tarjima qilindi. Shuningdek, mazmunan "Me'yor ul-axloq" asariga yaqin aniqrog'i, ayrim o'zgartirishlar bilan o'zbek tilida nashr etilgan "Tanvir ul-ahdoq fi-makorim al-axloq" (Go'zal axloqlar borasida ko'z gavharini nurlantirish) nomli asarining 1913-yil Toshkentda amalga oshirilgan toshbosma nashri tabdil qilindi.

"Me'yor ul-axloq" asaridan tarjima qilingan ushbu fikrlar ahamiyati hamon qadrlidir.

"Insonning turli kishilar bilan bo'ladigan munosabatlardagi siyratlari haqida: Ularning avvali to'rt qismdir. Bular ota va ona, muallimlar, ulug'lar va podshohlar³".

Ota va ona: Ota va ona bilan munosabatda xuzu' va xushu'da ya'ni, doimo hurmatu ehtiromda bo'lmoqlik lozim. Inson ularni ranjitmasligi, garchi hato so'zlasalar ham suhbatda so'zini bo'lmasligi lozim. Inson hech qachon ulardan yaratganga shikoyat qilmasligi kerak. Ota-ona tik turgan yerda xargiz o'tirilmaydi, doimo ularning xizmatida qoyim maqom bo'ladi.

Muallimlar: Anglash lozimki, ota-ona insonning jismonan tug'ilishiga sababchi bo'lsalar muallimlar ularning ruhiyatiga sababchidir. Muallimlar insonga ota-ona martabasidadir, ehtimol ziyod hamdir. Muallimga isyon bu ne'matga kufr keltirishdekdir.

Ulug'lar: Agar inson ulug'lar bilan bo'lsa avvalo ularga mulozamatni joyiga qo'ymog'i darkor. Bir ishda ulug'larga ishonilgan bo'lsa, ularning qo'l ostida sa'yi harakatda bo'ladi. Tilida va dilida valine'matiga shukronalikni ado qilib, ularning fikrlarini ma'qullab, sir-asrorlarini begonalardan pinhon tutadilar. Ulug'lardan biror ish ishonilib topshirilsa sa'yi qilib, uni maromiga yetkazadilar. Agar valine'matdan bir hafagarchilik sodir etilsa, inson uni o'ziga dushman maqomida tutmasligi kerak.

Podshohlar: Agar inson podshohning yaqinlaridan biri bo'lishga musharraf bo'lsa, avvalo unga duogo'ylikda qoyim bo'lgusidir. Muloqotda xuzu' va xushu'da bo'ladi. Birinchi bo'lib so'zlamaydi va biror narsa haqida so'rmaydi. So'zlaganda ham baland ovozda gapirmasdan, qo'li va boshqa a'zolarini tartibga keltirgan holda sekin, muloyimlik bilan so'zlashi lozim.

¹ Ko'rsatilgan asar. – B.146.

² Ko'rsatilgan asar. – B.166.

³ Abdurahmon Muhammad Sodiq o'g'li Toshkandiy. Me'yor ul-axloq. – Toshkent: G'ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1912. – B.130-133.

Shu o'rinda birinchi Prezidentimizning "Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas"¹, degan donishmandona so'zlari beixtiyor yodga keladi. Ha, haqqoniy tarix tom ma'noda bilimlar manbai, ma'naviyat negizi, qolaversa, chinakam tarbiya maktabidir. Ne baxtki, milliy mutaqillikka erishganimiz tufayli ona tariximiz to'g'risidagi chin haqiqat yuzaga chiqdi, uning qiyofasini to'sib kelgan g'uborlar, «oq» va «qora» dog'lar butkul supirib tashlandi. Buning orqasida katta tarix yaratgan xalqimizning yuksak dahosi, ne-ne buyuk ajdodlarimizning yorqin siymosi, ularning manguqlikka daxldor o'lmas merosi yangidan to'la kuch bilan namoyon bo'ldi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. -T.: O'zbekiston, 1996. 365 b.
2. Ma'naviyat yuduzlari. – T.: “Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi” nashriyoti, 2001. 399 b.
3. O'zbekistonning yangi tarixi. I jild. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2011. 552 b.
4. Abdurahmon Muhammad Sodiq o'g'li Toshkandiy. Me'yor ul-axloq. – Toshkent: G'ulom Hasan Orifjonov matbaasi, 1912. 170 b.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. -T.: O'zbekiston, 1996. –B, 78.